VETERINARIYA YO‘NALISHIDAGI TALABALARGA INGLIZ TILINI O‘QITISH VOSITALARI

Kenjaboyev Shokir Abdulxalimovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali

“O‘zbek va xorijiy tillar”

kafedrasi mudiri professori.

Email: shokir29111962@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha tezkor samarali strategiyalarni aniqlashda shuningdek, ingliz tili asosida veterinariya talabalarining kasbiy mahoratlarini oshirish usullarini o‘rganishga bag‘ishlangan**.** Maqolada hozirgi kunda ta’lim jarayonida veterinariya mutaxsisiligi talabalariga ingliz tili o‘qitishda pedtexnologiylardan foydalanish va darslarning samarali natija berishi uchun o‘qituvchining talabalarni qay darajada darsga qiziqtira olishiga va ularni bilim olishga bog‘liq masalalar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *Veterinariya atamalar, innavatsiyon texnologiya, yondashuv an’anaviy metod, zamaonaviy metod**,** pedtexnologiyalar, kompitensiya, axborot kominikatsiyasi.*

Аннотация. Данная статья посвящена изучению эффективных стратегий использования современных технологий в обучении английскому языку, а также методам повышения профессиональных навыков студентов ветеринарного направления на основе английского языка. В статье рассматриваются вопросы применения педагогических технологий при обучении английскому языку студентов ветеринарной специальности в современных условиях, а также факторы, влияющие на эффективность занятий, в частности способность преподавателя заинтересовать студентов и мотивировать их к обучению.

Ключевые слова: *ветеринарные термины, инновационные технологии, подход, традиционный метод, современный метод, педагогические технологии, компетенция, информационно-коммуникационные технологии.*

Annotation. This article is devoted to identifying effective and rapid strategies for the use of modern technologies in teaching English, as well as studying methods for improving the professional skills of veterinary students through English. The article examines the use of pedagogical technologies in teaching English to veterinary students in the modern educational process, as well as issues related to the effectiveness of lessons, including the teacher’s ability to engage students and motivate them to learn.

Keywords: *veterinary terminology, innovative technologies, approach, traditional method, modern method, pedagogical technologies, competence, information and communication technologies.*

Kasb beruvchi o‘quv yurtlarida ingliz tilining o‘qitilishida 5 ta maqsad amalga oshiriladi.

1. Amaliy maqsad.
2. Ta’limiy maqsad.
3. Tarbiyaviy maqsad.
4. Rivojlantiruvchi maqsad.
5. Kasbiy (professional) maqsad.

Ingliz tili o‘qitishning mazmuni o‘qitish maqsadlariga bog‘liq bo‘lib, u odatda maqsad mazmunini belgilaydi. O‘qitish mazmuniga nutqiy mavzular, malaka - ko‘nikmalar hamda til manbai kiradi. Ushbu ushta tarkibiy qism ingliz tilini o‘rganishda yaxlit o‘zlashtirishni taqozo etadi. Nutq va o‘qish mavzulari o‘qitish maqsadlariga asoslanib tanlanadi. Nutq malakalarini shakllantirish o‘qitish mazmunining yana bir komponenti hisoblanadi. Nutq ko‘nikmalari

deganda, ingliz tilida nutq faoliyati turlarini egallash tushuniladi. Nutq malakalari til manbaini muloqot paytida qo‘llash natijasida rivojlanadi va takomillashadi. oliy o‘quv yurtlarida ingliz tili o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri shu predmet bo‘yicha ma’lum hajmdagi bilimlarni o‘zlashtirishdan iboratdir. O‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilimlar asosini o‘quv dasturida ko‘rsatilgan til manbai tashkil qiladi. Til manbaini fonetik, leksik va grammatik hodisalarni, manbalarni o‘z ichiga oladi. Chet tillarni o‘qitish metodikasini maqsad-mazmuni bo‘lganidan keyin uning tamoyillari, metodlari, vositalari ham bo‘ladi. Ularsiz chet tillarini o‘qitib bo‘lmaydi.

Ingliz tili o‘qitish tamoyillari. Metodikada chet tillar o‘qitish tamoyillarini asoslash masalalari xorijlik olimlar Z.M.Svetkova, I.V.Raxmanov, A.A.Mirolyubov va boshqalarning ishlarida o‘z ifodasini topgan. Shu narsani ta’kidlash kerakki, G.Ye.Vedel, P.B.Gurvish va G.V.Rogovalar olib borgan tadqiqotlar aynan ushbu muammoga bag‘ishlandi, chet tillarni o‘qitish metodikasida ushta guruh: umumiy, xususiy, va maxsus tamoyillar borligini ko‘rsatadi.

Umumiy tamoyillarga:

1. Chet til o‘qitishning kommunikativ yoki amaliy yo‘nalishda bo‘lishlik tamoyillari;
2. Ona tili xususiyatlarini hisobga olish tamoyili;
3. Chet tilini o‘zlashtirishning hamma bosqichlari va sohalarida mashqlarning hal qiluvchi rol o‘ynashlik tamoyilidir.

Xususiy tamoyillar quyidagilar hisoblanadi:

1. Chet tili o‘qitishni nutq namunalari asosida olib borish;
2. Til ustida mashq qilishni nutq amaliyoti bilan qo‘shib olib borish;
3. Nutq faoliyati asosiy turlarini o‘zaro aloqasi;
4. O‘qish va yozuvni o‘rgatishda og‘zaki o‘zib ketish;
5. O‘qitishda chet tili nutq faoliyatida aproksimatsiya tamoyili;
6. Chet til o‘qitishdagi boshlang‘ich bosqichning intensivlik tamoyili.

Umumiy va xususiy chet tillar o‘qitish tamoyillaridan tashqari maxsus tamoyillarni ham ajratish maqsadga muvofiqdir. Bunday tamoyillarning rioya qilish doirasi juda tor bo‘lib, til aspektlarini yoki nutq faoliyatining ayrim turlarini o‘rgatishda ularga amal qilinadi.

Chet tillarni o‘qitish metodikasi hozirgi kunda 3 ta metodni qo‘llashni taklif qiladi:

1. Namoyish (demonstratsiya) qilish metodi.
2. Tushuntirish metodi.
3. Mashq ishlatish metodi.

Oliy va professional ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishda o‘qitish vositalari muhim ahamiyatga ega. Ingliz tilini o‘qitishning turli o‘qitish vositalari mavjud. Ingliz tili o‘qituvchisi ulardan foydalanib talabalarga manbalarni o‘rgatadi, tushuntiradi, sohasi bo‘yicha ko‘nikma, malaka hosil qiladi. Talabada bu ko‘nikma va malakalar yetishmasa, talabalarga ingliz tilidan to‘liq amaliy bilim berish qiyinlashadi, sekinlashadi.

Dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ta’lim vositalarni qo‘llash talabalarga mavzuni tezda tushunishga, ongli o‘zlashtirishga, xotirada yaxshi saqlanishiga yordam beradi.

O‘qitish vositalari murakkab o‘qitish tizimining tarkibiy qismidir. Shu sababdan xorijiy tillarni o‘rganishda ta’lim vositalarining o‘rni muhimdir.

G.V.Rogova ingliz tilini o‘qitishda o‘qitish vositalari va o‘qitish manbalari keng qo‘llanishi tug‘risida to‘xtab, uni quyidagicha ta’riflaydi. O‘qitish vositalari deganda biz har xil turdagi shunday moslamalarni ko‘zda tutamizki, ulardan biz ingliz tili til manbalarini talabalarga taqdim qilishda, ongida mustahkamlashda, ko‘nikma, malakalarni shakllantirishda, tekshirishda foydalanamiz. U vositalarni 2 ga bo‘ladi:

1. mexanik bo‘lmagan vositalar
2. mexanik vositalar.

Birinchisiga auditoriya, magnit doskalarini, flanelegrafni kirgizadi. Keyinshalik G.V.Rogova vositalarni asosiy va qushimsha vositalarga bo‘ladi. Vositalarni o‘qituvchi va talaba asosiy vositalariga ajratadi. U talabaning asosiy vositalariga darslik, rasmlar to‘plamini,

kinofragmentlar, tarqatma manbalarni kirgizsa, o‘qituvchining asosiy vositasiga esa maktab dasturini, o‘qituvchi kitobini kirgizadi. Yordamshi vositalarni ham u shunday 2 ga ajratib, ularga talabalar va o‘qituvchilar o‘zlari tayyorlagan kartochkalar jadvallar, rasmlar, o‘yinshoqlar, lug‘atlar, qo‘shimcha o‘qish kitoblari, o‘qituvchi uchun esa metodik adabiyotlarni kirgizadi.

M.V.Lyaxoviskiy chet tili yordamshi vositalari deganda o‘qitish maqsadlarni, o‘qituvchi topshirig‘ini vazifasini unumli, foydali vaqt sarf qilib tezroq amalga oshirishga yordam beruvchi hamma manbalarni, o‘quv jarayoniga kerak bo‘ladigan vositalarni, qurollarni tushunadi. M.V.Lyaxoviskiy yordamchi vositalarni 2 guruhga:

1. An’anaviy (texnik bo‘lmagan)
2. Zamonaviy texnik vositalarga ajratadi.

Birinchisiga rasmlar, jadvallar, darsliklarni ko‘rsatsa, ikkinchisiga texnik vositalarni kirgizadi. Texnik vositalar deb, u fonogrammani, fotogrammani, videofonogrammani tushunadi. Fonogramma - bu magnit lentasiga, plastinkaga yozilgan va tinglash kanali orqali apparatlar yordamida qabul qilinadigan ma’lumotdir. Fotogramma ko‘rish kanali orqali qabul qilinadigan ma’lumotdir. Hozirgi davrda o‘quv vositalariga ingliz tili darsliklari, o‘qituvchi kitoblari, dasturlar, o‘qish kitoblari, turli rasm, jadvallar, texnik vositalar kiritilyapti.

Hozir vositalarni qurish vositalariga (rasm, predmet, jadvallar, fotogrammalar) va tinglash vositalariga (fonogramma), qurish –tinglash vositalariga (kinofilm, prezentatsiya, videoroliklar) ajratilyapti.

Vositalarning hammasi o‘quv metodik to‘plamni tashkil qiladi. O‘quv metodik to‘plam darsliklar mualliflarini oldiga qo‘ygan maqsad, vazifalarini amalga oshirishga, ingliz tilidan malaka va ko‘nikmalarni yaxshirok shakllantirishga, o‘stirishga yordam beradi.

Hozir yangi pedagogik texnologiyalar, interaxborot kommunikatsion texnologiyalari va metodlarning xususiyat, tamoyillarini hisobga olinib zamonaviy vositalarni multimediani qo‘llashni, undan unumli foydalanishni talab qilinadi. Unda talabaning o‘rganayotgan mavzuni esda qolish darajasi hisobga olinadi. Talabalarning mavzuni, materialni qabul qilishi eslab qolishi uchun qo‘llanilayotgan metod, usullarga, vositalarga bog‘liq. Ilmiy adabiyotlarda o‘qitilgan matnning 10% i, tinglaganni 30% i, agar ham ko‘rib, ham tinglansa 50% i, biz o‘zimiz so‘zlab, gapirib bersak 70%, agarda aytib berib uni o‘qisak, uni amalda bajarsak 90% esda saqlanar ekan. Birinchi holatda talabalarning o‘rganish, esda saqlashi ansha past, passiv, 2 shi, 3 shi xolatda 4-5-6 larda esa yodda saqlash ansha yuqori, faol bo‘lgan.

Hozirgi zamonaviy ingliz tilini o‘qitish texnologiyalari, interaktiv texnologiyalariv metodlar talabalarning esida yaxshi saqlanib qoladigan vositalarni qo‘llashni talab qiladi. Uning uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan monomedia, multimedia vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Monomedia bitta vosita yoki faoliyat orqali axborot, ma’lumot olishni masalan, o‘qitish yoki tinglash orqali ma’lumot olishni ko‘zda tutadi. Multimedia esa - multi - ko‘p, media - xabar, axborot, ma’lumot beradigan vositalardan foydalanish, qo‘llashni ko‘zda tutadi. Multimedia orqali esa bir vaqtning o‘zida ekranda va kompyuter, diktofondan quyidagilar taqdim etiladi.

a) grafika - ob’ektning o‘zi tasviri (surati)
b) matn - ham o‘rganilayotgan chet tilida va ona tilidagi tarjimasi.
v) tovush - matnning ham chet tilida va ona tilidan talaffuzi
g) qayta joylashtirish – “sichqoncha” yordamida ob’ekt bilan har xil operatsiyalar.
d) animatsiya - ob’ektni harakatda, jarayonda kuzatish imkoniyati. Bular multimediani - kompyuterni, diskni, qo‘llash, foydalanish orqali bo‘ladi. Uning uchun kompyuterlarda ishlashni, qo‘llashni bilish zarur.

Multimediada kompyuter - o‘qituvchini o‘rnini o‘ynaydi. Multimediadan foydalanib 1) zamonaviy ingliz tili darsliklari ishlab chiqish 2) turli tuman multimediali kompyuterli dastur vositalarini ishlab chiqish va qo‘llash mumkin.

Raqamli texnologiyalar kompetent yondashuv uyg‘unligida talabadan ingliz tilidagi o‘quv materialiga aloqador alohida bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni emas, balki ularni yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog‘liqlikda o‘z navbatida o‘qitish metodlarini tanlash tizimi ham o‘zgarishga uchraydi. O‘qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo‘llash o‘z navbatida ta’lim jarayonida qo‘yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda Milliy “Elektron ta’limi” tizimini boshqarish, oliy ta’lim muassasalari tomonidan axborot-ta’lim resurslarini iste’mol qilinishini tashkil etish, Ye-learning hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini axborot-kommunikatsiya vositalari asosida amalga oshirish, ingliz tilini o‘rganishda maxsus metodikalarni takomillashtirish dolzarb bo‘lib, elektron metodik majmualar va boshqa ta’limiy axborot resurslariga yagona davlat talablarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Natijada, oliy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini o‘rgatish mazmuni, metod, vositalarini o‘rganish talab etiladi. Ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘rgatishda axborot kommunikatsion texnologiyalar uchun maksimal darajada qulay sharoitlar yaratish, ta’lim sub’ektlariga islohotlarning maqsadi, vazifalari va natijalari haqida tezkor, xolis va to‘liq axborot yetkazish, o‘zaro hamkorlik aloqalari samaradorligini tubdan yaxshilash dolzarb hisoblanadi. Oliy va professional ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini o‘rgatish uchun:

Birinchidan, metodik muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan an’anaviy hamda zamonaviy yondashuvlarni muvaffaqiyatli uyg‘unlashtirish zarur.

Ikkinchidan, ingliz tilini o‘qitishning asosiy yo‘nalishlarini didaktik jihatdan qamrab olishda namoyon bo‘ladi. Shundagina, ta’lim jarayonini insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etish, tabaqalashtirish, o‘quv jarayonini faoliyatli yondashuv hamda shaxsga yo‘naltirilganlik prinsiplari asosida tashkil etish ehtiyoji qondiriladi.

Oliy va professional ta’lim muassasalari talabalarining sohaviy ingliz tilini tezkor o‘rganishlari uchun ularga interfaol metodlar va vositalarga ustuvorlik berish asosida tashkil etilganida samarali natijalarga erishiladi.

Ingliz tilini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish talabalarning o‘quv-biluv faoliyatini rivojlantirishni taqoza etib, ijtimoiy-pedagogik zaruriyat ekanligi va bunda kompetent yondashuv oliy ta’limni modernizatsiyalash nuqtai nazaridan amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko‘rib chiqish hamda ta’limning an’anaviy ush elementi (triada) – «Bilim – Ko‘nikma – Malaka»ni oltita birlik (sikstet) – «Bilim – Ko‘nikma – Malaka – Amaliy faoliyat tajribasi – Kompetensiya – Kompetentlik» tarzida tahlil etilishini talab etadi. Aynan shu jarayonda turli interfaol metodlarni qo‘llash samarali natija berishi tadqiqotlar davrida aniqlandi. Ayrimlarini tadqiqot ishida ko‘rsatib o‘tsak:

“Bumerang” texnologiyasi. Ushbu texnologiya talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so‘zlab berish, fikrini erkin holda bayon eta olish, qisqa vaqt ishida ko‘p ma’lumotga ega bo‘lish ham dars mobayonida o‘qituvchi tomonidan barcha talabalarni baholay olishga qaratilgan. Ushbu texnologiya ingliz tilini tezkor o‘rganishda samarali natija beradi. Texnologiyaning maqsadi. O‘quv jarayoni mobaynida tarqatilgan materiallarni talabalar tomonidan yakka va guruh holatida o‘zlashtirib olishlari hamda suhbat – munozara va turli savollar orqali tarqatma materillardagi matnlar qay darajada o‘zlashtirilganligini nazorat qilish va baholash. O‘quv jarayoni mobaynida har bir talaba tomonidan ingliz tilini tezkor o‘rganishga imkoniyat yaratish. Texnologiyaning qo‘llanilishi. Amaliy mashg‘ulotlar hamda suhbat-munozara shaklidagi darslarda yakka tartibda, kichik guruh va jamoa shaklida foydalanish mumkin. Mashg‘ulotda foydalaniladigan vositalar. Talaba mashg‘ulot jarayonida mustaqil o‘qishi, o‘rganishi va o‘zlashtirib olishi uchun mo‘ljallangan axborot ta’limiy resurslar, tarqatma materiallar (o‘tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo‘yicha qisqa matnlar, sur’atlar, ma’lumotlar). Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi. Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

• Talabalar kichik guruhlarga ajratiladi;
• Talabalar mashg‘ulotning maqsadi va tartibi bilan tanishtiriladi;
• Talabalarga mustaqil o‘rganish uchun mavzu bo‘yicha matnlar tarqatiladi;
• Berilgan matnlar Talabalar tomonidan yakka tartibda mustaqil o‘rganiladi;
• Har bir guruh a’zolaridan yangi guruh tashkil etiladi;
• Yangi guruh a’zolaridan har biri guruh ishida navbati bilan mustaqil o‘rgangan matnlari bilan axborot almashadilar, ya’ni birbirlariga so‘zlab beradilar, matnni o‘zlashtirib olishlariga erishadilar;
• Berilgan ma’lumotlarni o‘zlashtirilganlik darajasini aniqlash uchun guruh ishida ichki nazorat o‘tkaziladi, ya’ni guruh a’zolari birbirlari bilan savol-javob qiladilar;
• Yangi guruh a’zolari dastlabki holatdagi guruhlariga qaytadilar;
• Darsning qolgan jarayonida talabalar bilimlarini baholash yoki to‘plagan ballarini hisoblab borish uchun har bir guruhda “guruh hisobchisi” tayinlanadi;
• Talabalar tomonidan barcha matnlar qay darajada o‘zlashtirilganligini aniqlash maqsadida o‘qituvchi (yoki opponent guruh) talabalarga savollar bilan murojaat etadilar, og‘zaki so‘rov o‘tkazadilar;
• Savollarga berilgan javoblar asosisda guruhlarni to‘plagan umumiy ballari aniqlanadi;
• Har bir guruh a’zosi tomonidan guruhdagi matnning mazmunini hayotga bog‘lagan holad bittadan savol tuziladi;
• Guruhlar tomonidan tayyorlangan savollar orqali savol – javob tashkil etiladi (“guruh hisobshilari” berilgan javoblar bo‘yicha ballarni hisoblab boradilar);
• Guruh a’zolari tomonidan to‘plagan umumiy ballar yig‘indisi aniqlanadi;
• Guruhlar to‘plagan umumiy ballar guruh a’zolari o‘rtasida teng taqsimlanadi.
•Dars (mashg‘ulot)ni yakunlash, uyga vazifa berish.

O‘qituvchilarning ish tajribasidan Ushbu texnologiyani qo‘llagan o‘qituvchilar o‘z o‘quv predmetlari mavzusi yoki erkin mavzu asosida quyidagi mazmundagi matnlardan foydalangan holda o‘qitish va tarbiyalash jarayonini tashkil etishadi. Masalan, biz tadqiqot davrida (2022-2023 o‘quv yili) 1 kurs talabalari uchun *“Aral Sea — What Was and What Is”* mavzusini mazkur texnologiya yordamida tashkil qildik. Matnni o‘qib, tarjima qilishar ekan, talabalar, matn bo‘yicha savol tuzishlari va ularga ikkinchi guruhdagilar javob berishlari talab etildi. Mazkur texnologiya bir mashg‘ulot davomida o‘quv materialini chuqur va yaxlit holatda o‘rganish, ijodiy tushunib etish, erkin egallashga yo‘naltirildi. Bu mashg‘ulotda talabalar munozarali mazmunga ega bo‘lgan mavzuni o‘rganib, og‘zaki va yozma ish shakllarida amalga oshirildi. Texnologiya mashg‘ulot mobaynida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarish, navbat bilan talaba yoki o‘qituvchi rolida bo‘lish va mos ballarni to‘plash imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1 Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2021 йил 6 майда чет тилларини ўқитиш тизимини такомиллаштириш чоратадбирлари юзасидан видеоселектор йиғилишида сўзлаган нутқидан.

2 Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги ҳузуридаги фармацевтика тармоғини ривожлантириш агентлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги Қарори / – ЎзАҚҲТ, 2017. ВМҚ – 993-сон

3 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 10 апрелдаги “2019- 2021 йилларда Республиканинг фармацевтика тармоғини яна жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5707-сонли Фармони https://lex.uz/ru/docs/4280358 [Мурожаат санаси: 14.12.2019.]. 4. Брязгунова, Е. Н. Самообразование как основа успешности человека [Электронный ресурс] / Е. Н. Брязгунова. – Режим доступа : http://moluch.ru/conf/ped/ archive/22/2175/. – Загл. с экрана (дата обращения: 02.09.2016)

4 Исроилова М.Н. Лотин тилини ўқитиш жараёнида тиббиёт олий таълим муассасаси талабаларининг интелектуал маданий ривожлантиришнинг дидактик асосларини такомиллаштириш: Пед. фан... фалсафа док. дисс. (PhD) – Т., 2018. – 121 б.

5 Алдакаева, Н. Г. Тетрадь по самообразованию с заметками на полях / Н. Г. Алдакаева, Л. Ю. Яковлева. –Салехард : ИМЦ, 2009 . – 32 с

6 Маралов, В.Г. Основы самопознания и саморазвития / В.Г. Маралов.- М.: Академия, 2002. С. 83. – 256 с